

O'ZBEKISTONDA ODAM SAVDOSIGA QARSHI CHORA – TADBIRLARNING AMALGA OSHIRILISHI

Quryazova Laylo Rahmonovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti,

Tarix fakulteti mustaqil izlanuvchisi

<https://orcid.org/0009-0000-5344-5394>

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda odam savdosiga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda davlat siyosati, qonunchilik asoslari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va nodavlat notijorat tashkilotlarining o'zaro hamkorligi yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan dasturlar va ularning samaradorligi ko'rib chiqiladi. Maqolada odam savdosiga qarshi kurashishning ijtimoiy, huquqiy hamda ma'naviy jihatlari yoritilib, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: odam savdosi, kurashish chora-tadbirlari, davlat siyosati, qonunchilik, inson huquqlari, fuqarolik jamiyati, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, nodavlat notijorat tashkilotlari, xalqaro hamkorlik, profilaktika, O'zbekiston tajribasi.

So'nggi yillarda global miqyosda odam savdosi inson huquqlarini poymol etuvchi eng xavfli ijtimoiy jinoyatlardan biri sifatida baholanmoqda. Odam savdosi nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarmoqda, balki mamlakatlarning ijtimoiy barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston Mustaqilikka erishgandan so'ng keyingi yillarda republikada bandlik davlat xizmatlari faoliyatining takomillashib borishi nati-jasida ish izlab mehnat muassasalariga murojat qilganlar, ish bilan ta'-minlanganlar soni yildan-yilga ko'payib, ishsizlar soni va darajasi pasa-yib bordi. Iqtisodchilar buning asosiy



sabablariga iqtisodiy faol va ish bilan band bo'lgan aholining o'sib borishi, mehnat resurslarining yuqori sur'atlarda o'sishi, mehnat muassasalari xizmatlarining yaxshilanishi va ularga ish izlab murojat qilganlar sonining oshishi hamda mehnat muassasalari talab etgan ko'plab bo'sh ish o'rinlarining mavjudligi, fuqarolarni ishga joylashtirish faoliyatining yaxshilanishi va buning natijasida ish izlab muroat qilganlar aksariyat qismining ish bilan ta'minlanishini kiritdilar.

1992 yil O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi kollegiyasida yoshlar masalasi, ularni ishga joylashtirish, qayta o'qitish, qayta tayyorlash va ijtimoiy himoyalash masalalari ko'rib chiqildi. Shu vaqt orasida Xorazm viloyatida 1 mln.118 ming aholi bo'lib, undan 362 ming yoshlardan iborat bo'ldi. 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlardan har yili 18 ming nafari ishsiz hisoblandi. Yil boshlari – mart, aprel oylarida 9-11 sinf 1992 yilgi bitiruvchilar orasida kasb tanlash bo'yicha varaqalar tarqatilib, o'quvchilarning kedlgusida o'qish va ishga bo'lgan hohishlari aniqlanib, taxlil qilib chiqildi. Natijada, 9 sinfni bitirib chiqqan 26125 nafar o'quvchi bitirib chiqqan bo'lsa, 18883 nafar o'quvchi 10 singa ko'chish, 4154 o'quvchi hunar-texnika bilim yurtlariga, 2608 o'quvchi o'rta – maxsus o'quv yurtiga, 105 o'quvchi turli kurslarga kirib o'qish, 1425 nafar o'quvchi esa ishlash istagi borligini bildirgan. Shuningdek, 11 sinfni bitirgan 19648 nafar o'quvchidan 3138 nafari hunar – texnika bilim yurtiga, 5811 o'quvchi o'rta maxsus o'quv yurtiga, 5671 o'quvchioliygohlarga, 610 nafar o'quvchi turli kurslarga, 4418 o'quvchi esa ishga istagi borligini bildirgan. Ishlash istagini bildirganlarni ish bilan ta'minlash maqsadida 1000 dan ortiq yoshlar ishga joylashtirildi.

Bundan tashqari 1990-1991 yilda hunar-texnika bilim yurtini tamomlaganlarning ishsiz yurishlarining sababi tekshirilgan vaqtda masalan, Qo'shko'pir tumanida 1991 yili hunar-texnika bilim yurtini tamamlaganlardan 150 nafar yoshlar ishsiz qolgan. Tekshirish natijasida bu malakali ishchilar uchun ish joylari yo'qligi, ularning ko'pchiligi ish topolmasdan oila pudratida mehnat qilganlar, ularga mehnat daftarchalari ochilmagan va ishsizlar qatoridan joy olganlar.



1992 yil 1 aprelgacha yig'ilgan ma'lumotlarga ko'ra Xorazm viloyati bo'yicha 16 va undan katta yoshdagilardan 7970 nafari oila pudratida ishlaganlar, shundan 1084 nafari hunar – texnika bilim yurtini bitirganlar, shulardan faqat 2474 kishiga mehnat daftarchasi ochilgan, qolganlari esa hujjatsiz ishlaganlar.

Lekin, yoshlarning kattaroq maosh qidirib xorijga chiqib ketish holatlari yuqoriligicha qolaverdi. Aynan odam savdosining kuchayib borishi migratsiya masalalari bilan bog'liq bo'ldi. Belgilangan qonun va qoidalarga hilof ravishda aholining bir mamlakatdan boshqa mamlakatga ko'chishi, u yerda bo'lishi va u yerdan g'ayriqonuniy o'tishi bilan bog'liq bo'lgan aynan "noqonuniy migratsiya" ham odam savdosi - odamni olish - sotish yoki undan foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish va boshqa shu kabi noqonuniy harakatlarni qamrab oluvchi ijtimoiy xavfli holat bo'lib bordi.

Tadqiqotchi A.Vohidov odam savdosi bilan bog'liq jinoyatchilikning keng quloch yoyishiga quyidagi sabablarni ko'rsatadi;

Birinchidan, aholining ijtimoiy himoyaga muxtoj qatlamlar – ishsiz yurgan fuqarolar, turmush hayotida ko'p qiyinchilikka uchragan ayollar va ota- onaning e'tibori va qaramog'idan chetda qolgan voyaga yetmagan shaxslarning go'yoki ularning muammolarini hal qilgan kabi ko'rinb, o'zlarining maqsadlarini bajarayotgan;

Ikkinchidan, dinni niqob qilib, boshqa o'lkalarga olib borish va o'ziga qataniga qarshi kurashishgacha bo'lgan jarayonlardan o'tishga majbur qilish;

Uchinchidan, o'zi va yaqinlarini bu kabi salbiy illatlar turkumiga kirishini da'vat etish hamda og'ir va sho'ta og'ir turdagi jinoyatlarni sodir etishga urinishi bilan bog'liq bosqichlar.

Odam savdosi bilan bir qatorda bolalar mehnatidan majburiy foydalanish kabi o'ta muhim masala bor ediki, O'zbekiston hukumati bu borada ham bir qator chora-tadbirlarni belgilab bordi. Avvalo. 2007 yil 15 yanvarda "O'zbekistonda bolalar farovonligini ta'minlash bo'yicha Harakat dasturi" qabul qilindi. Unda asosiy maqsad 2007-2011 yillarda qisman ish kuni shartlari asosida ustozlik, kvota ajratish, ishga joylashtirish imkoniyat-larini e'tiborga olish, mehnat qonunchiligiga

muvofiq voyaga yetmaganlar huquq va manfaatlarini hisobga olgan holda mehnat va dam olish oromgoh-larini tashkil etish, kasb ta'limini olgan yoshlarni ishga joylashishi va bandligini tezlashtirish, ishlayotgan o'smirlarning mehnat sharoitlari monitoringini takomillashtirish belgilandi. BMTning 42-sessiyasida esa O'zbekistonning ikkinchi milliy ma'ruzasi asosida qator tavsiyalar ishlab chiqildi. Ularda bolalar farovonligini oshirishni ta'minlash bo'yicha umumiy harakatlar va yo'nalishlarning yangi mo'ljallari global miqyosda belgilab berildi.

Ish bilan band bo'lmagan fuqarolarni ish bilan ta'minlash maqsadida, shahar va tumanlarda bo'sh ish o'rinlari yaramakalari o'tkazish an'anaviy tus oldi. 2003 yilning 1 aprelgacha qadar Urganch shahrida 1, Urganch 1, Gurlan 1, Xiva 1, Shovot 1 va Qo'shko'pir tumanlarida 1 martdan 6 ta bo'sh o'rinlari tashkil etildi. Ularda 178 ta ish beruvchi korxona va tashkilotlardan 1145 bo'sh ish o'rinlari taklif etildi. Unda 1938 nafar band bo'lmaganlar qatnashdi. Ish izlovchilardan 451 nafari ishga joylashtirildi. 26 kishi kasb-kor o'quvlarga va 131 kishi qisqa muddatli haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etildi. 1330 nafar ish izlovchiga mehnat qonunchiligi va huquqiga doir maslahatlar berildi. Lekin, shunday bo'lishiga qaramasdan, 2003 yilning birinchi choragida bosh boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlangan grafik asosida Urganch shahri, Gurlan, Qo'shko'pir, Urganch, Xiva va Shovot tumanlari mehnat bo'limlarida 2003 yilning 1 choragida 2 marotabadan mehnat yarmakalari tuzish o'rniga 1 marotaba, Bog'ot, Xozarasp, Yangiariq va Yangibozor tumanlarida esa umuman rejalashtirilgan mehnat yarmakalari turli bahonalar bilan o'tkazilmadi.

Muhojirga chiqib ishlaydiganlar orasida odam savdosi qurbonlari ko'payib bordi. Nukuslik Nurlan Boqimbeov 2005 yilda Qozog'iston Respublikasida jinoiy javobgarlikka tortilgan bo'lib, ikki yil ahloq tuzatish koloniyasida jazo muddatini o'tab chiqib, Qozog'istondan Do'stim isimli shaxs bilan qoraqalpog'istonlik fuqarolarni ishlatish maqsadida til biriktiradi. Ular Xo'jalik tumanida istiqomat qiluvchi A.Tajenov, Q.Najimatdinov, J.Muxanov, A.Yusupov, S.Qilichboevlar, hammasi bo'lib 14 nafar kishini Qozog'istonning Mang'istov viloyati Shepte tumanida yangi sement zavodi qurilayotgan va u yerga borib ishlasa, oyiga 30 ming



qozoq tengesi to'lanishini aytishadi. Ular Qozog'istonga yetib kelishgach, Abdurashid va Jonkeldi ismli ishboshqaruvchilar tayinlovi bilan turli ishlarga tayinlanadilar. Ular bir oy davomida ishlaganliridan so'ng maoshlarini so'rashganda turli aldovlar bilan ularga maosh berilmaydi. O'zbekistonlik Baxtiyor degan yigit bo'lsa, uyga qaytib 14 nafar ishga ketganlarning oilasiga, ichki ishlar organlariga ularning taqdirini aytib beradi. Yigitlarning ba'zilar oylik maoshlari berilmagach, qo'shimcha ish topamiz bahonasi bilan atrofdagi qishloqlarga borib ishlab kelib turib, O'zbekistonga qaytishga muvaffaq bo'ladilar. Abdurashid va Jonkeldi yigitlarning ketib qolganini bilib, qolgan yigit-larni 118 kun davomida ishlatadilar. U yerda qolgan yigitlarning onalari – H.Yeshimbetova, D.Qo'sbergenova, T. Axmetovalar farzandlari ishlayotgan yerning manzilini topib, u yerga boradilar. Onalari o'z farzandlarini olib ketmoqchi bo'lganlarida Do'stim ularga baqirib, haqorat qilib tashlaydi. Shunday bo'lsada yigitlar o'z uylariga qaytganlaridan so'ng N.Boqimbetov jabrlanganlarga 100 ming so'mdan to'lov to'lab, o'zi jinoiy javobgarlikka tortiladi. N.Boqimbetov O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 135-moddasi 3 – bo'limiga ko'ra 5 yil ozodlikdan maxrum etiladi.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasida odam savdosiga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar so'nggi yillarda izchil tizimga solingan bo'lib, bu borada milliy qonunchilik, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qabul qilingan qonun va qarorlar, milliy harakat dasturlari hamda xalqaro tashkilotlar bilan yo'lga qo'yilgan hamkorlik mamlakatda odam savdosining oldini olish, uni aniqlash va jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish borasida samarali natijalar bermoqda.

Shu bilan birga, bu sohada hali ham dolzarb masalalar saqlanib qolmoqda. Xususan, aholining huquqiy ongi va savodxonligini oshirish, yoshlar o'rtasida profilaktik ishlarni kuchaytirish, nodavlat notijorat tashkilotlarining imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Odam savdosiga qarshi kurashish faqat davlat

organlarining emas, balki butun jamiyatning mas'uliyatli vazifasidir. Shu bois, bu yo'nalishda davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Ахмедов Х. Алданиб қолган ёмон // Халқ сўзи. 2008 йил 21 ноябрь.
2. Вахидов А. Одам савдосига қарши курашиш – давр муаммоси // // Одам савдоси жиноятининг содир этилиши сабаблари ва имкон берган шарт-шароитлар. Мазкур жиноятнинг олдини олишда ва қрши курашишда ички ишлар органларининг фаолияти. Республика илмий-амалий конференция тўплами. – Тошкент. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Малка ошириш институти, 2022. -61 б.
3. Толаметова З., Қулматов А. Ишсизликнинг келиб чиқиш сабабларига назарий ёндошув ва уни бартараф этиш йўллари // Иқтисод ва молия. – 2017. №4, - 52 бет.
4. Хоразм вилояти ДА Ф-17, рўйхат -1, йиғма жилд – 8, - 74 varaқ.
5. Хоразм вилояти ДА Ф-17, рўйхат -1, йиғма жилд – 8, - 76 varaқ.
6. Хоразм вилояти Давлат Архиви. Ф-17, рўйхат – 1, йиғма жилд – 77, - 73 varaқ.